



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ,
ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ**

**МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ БИОЛОГИЯ ФАКУЛЬТЕТИ, ГЕНЕТИКА
КАФЕДРАСИ**

**ЎЗР ФА БОТАНИКА ИНСТИТУТИ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА
СПОРТ УНИВЕРСИТЕТИ ЎЗБЕКИСТОН ПОЛВОНЛАР МИЛЛИЙ
МАРКАЗИ**

**Биология фанлари доктори Турсунов Жўракул Юсуповичнинг 85
йиллигига бағишланган**

**Генетика ва цитоэмбриология соҳаларининг долзарб муаммолари
ва келажак истиқболлари**

**Республика илмий-амалий конференция МАТЕРИАЛЛАРИ
2023 йил 15 декабрь**



DORIVOR UKROP-FOENICULUM VULGARE O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

ILMIY RAHBAR: MATKARIMOVA A.A.

TADQIQOTCHI: XAYDARALIYEVA Y.B.

Annatasiya. Xalq tabobatida va ilmiy tibbiyotda shifobaxsh o'simliklardan har xil kasalliklarni davolashda keng foydalaniladi. Bulardan ko'pari madaniylashtirib, alohida yer maydonlarida, plantatsiyalarda ekilib, parvarish qilib ko'paytirilmoqda,

Kalit so'zlar: alkaloid, dorivor, efir moylari, ilmiy, plantatsiya, saponin, tabobat, preparal, vitamin, shifobaxsh, ukrop.

Ilmiy tibbiyotda ishlatiladigan dorivor preparatlarning qariyb 50 foizi o'simliklardan ajratib olinadi yoki ulardan tayyorlanadi. Tabobatda katta ahamiyatga ega bo'lgan alkaloidlar, saponinlar, efir moylari va boshqa moddalar ham o'simliklardan olinadi, yana turli dorilar, preparatlar va vitaminlarga boy konsentratlar tayyorlanadi.

Xalq tabobatida turli xastaliklarga qarshi tabiat in'om etgan giyohlardan foydalanish bizga qadimdan ma'lum. Zero, o'simlik dunyosini insonlar tamonidan qo'llash ko'p asrlar davomida avlodlardan avlodga o'tib, takomillashib kelgan va ular hozir olimlar tamonidan to'ldirildi va amliyotda asoslab berildi. Xalq tabobatida va ilmiy tibbiyotda shifobaxsh o'simliklardan har xil kasalliklarni davolashda keng foydalaniladi. Bulardan ko'pari madaniylashtirib, alohida yer maydonlarida, plantatsiyalarda ekilib, parvarish qilib ko'paytirilmoqda [1].

Shunday o'zining foydali xususiyatlari bilan xalq tabobati va ilmiy tabobatda juda ko'p ishlatiladigan o'simliklardan biri *Foeniculum vulgare* (Dorivor ukrop) o'simligidir.

Foeniculum vulgare O'rta Osiyo xalqlariga juda qadimdan ma'lum.

Dorivor ukrop - *Foeniculum vulgare* Mill. juda qadim zamonlardan beri O'rta Osiyo va Sharq xalqlarining sevib iste'mol qiladigan ziravor o'simliklaridan hisoblanadi [2].



Dorivor ukrop - *Foeniculum vulgare* Mill. Qrim, Kavkazning dashtlarida va O'rta Osiyo janubida tabiiy sharoitda o'sadi. Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Krasnodar o'lkasi va Belorussiyada ekib o'stiriladi.

Foeniculum turkumining hozirgi kunda bir qancha turlari:

Foeniculum giganteum Lojac.

Foeniculum officinale All.

Foeniculum panmorium (Roxb.)DC

Foeniculum piperitum C. Presl.

Foeniculum rigidum Brox.ex Steud.

Xalq tabobatida va ilmiy tabobatda keng qo'llaniladi.

Dorivor ukrop-*Foeniculum vulgare* Mill. Ziradoshlar oilasiga mansub, bo'yi 90-200 sm ga etadigan ko'p yillik o' o'simlik. Ildiz tarmoq o'q ildiz, sarg'ish- og'imtir, asosan tuproqning haydaladigan qavatida (3-20 sm) joylashadi. Asosiy ildiz urchug'simon, etli, uzunligi 55 sm. gacha, yon ildiz uzunligi 2,5 sm.gacha. Poyasi to'qri, dumalog', biroz g'irrali, ko'kimtir g'uborli, sershox. Barglari navbatlashib joylashgan, shakli tuxumsimon-uchburchak, uch-to'rtta patsimon g'ismlarga bo'linib ketgan. Gullari mayda, sariq bo'lib, murakkab soyabonga to'plangan. Soyobonda o'ramava o'ramacha burglar bo'lmaydi kosacha bargi juda mayda, tojbargi 5 ta, otaligi 5 ta, onalik tuguni ikki honali, pastga joylashgan. Mevasi-qo'shaloq pista. Mevasi kulrang yoki ko'kish-qo'ng'ir, uzunchoq uzunligi 10 mm.. kengligi 3 mm.gacha, ko'zga tashlanib turuvchi besh qirrali. Iyul-iyun oylarida gullaydi, mevalari avgustda yetilad [2,4].

Foeniculum vulgare an'anaviy tibbiyotda ovqat hazm qilish, endokrin, reproduktiv va nafas olish tizimlari bilan bog'liq ko'plab kasalliklar uchun ishlatilgan. Bundan tashqari, u emizikli onalar uchun galaktagog agenti sifatida ham qo'llaniladi [2, 3].

Dorivor ukrop - *Foeniculum vulgare* Mill. Mevasi tarkibida 3-6,5% efir moyi, 20 % gacha yog' va oqsil moddalar bo'ladi. Bargi tarkibida 0,5% gacha efir moyi mavjud.



Dorivor ukrop-Foeniculum vulgare mevasidan tayyorlangan damlama yurak shishini pasaytirishga, qorin dam bo'lganda, yuqori nafas yo'llarining shamollash kasalliklarida, balg'am ko'chiruvchi sifatida ham ishlatiladi. Bundan tashqari ulardan atir-upa sanoatida keng foydalaniladi, ro'zg'orda esa ziravor tariqasida ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Dorivor o'simlikshunoslik va yangi dori vositalarini ishlab chiqarish korxonalarini tashkillashtirish uchun dorivor o'simliklarni sanoat miqyosida plantatsiyalarini yaratish". - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2013 yil 5 avgust 222-sonli majlis bayoni, 3- bandi. - Toshkent, 2013.
2. Ибрагимов А.Ё. Доривор ва зиравор ўсимликлар. Тошкент, 2005. Икромов М.И., Normurodov X.N., Yuldashev A.S. Botanika. Toshkent, "O'zbekiston". 2002,- 322 b.
3. Nabiyev M. "Sabzavot, rezavor mevalar, ziravorlar xosiyati". Toshkent, "Mehnat", 1990.
- 4, Matkarimova A.A., Maxkamov T.X., Maxmudova M.M., Azizov X.Ya., Vaisova G.B. Botanika. - Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019. 298 b.